

## "O'zavtoyol" DAK boshqaruvi raisi A.Abduvalievning kompaniya faoliyatining 2014 yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga bag'ishlab tizimdagi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishdagi ma'ruzasi

Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Bugungi kunda respublika avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi 183 685 km.ni tashkil etmoqda. Jumladan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari 42 654 km.ni (shundan, xalqaro yo'llar – 3979 km., davlat ahamiyatidagi yo'llar – 14066 km., mahalliy yo'llar – 24609 km.), shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari 61 664 km.ni, hamda xo'jalik avtomobil yo'llari 79 367 km.ni tashkil etmoqda.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida "O'zavtoyol" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi mehnat jamoalari tomonidan 42654 km. uzunlikdagi umumfoydalanuv avtomobil yo'llari va undagi barcha muhandislik inshootlari O'zbekiston Respublikasi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq texnik soz holatda asraldi, yo'l harakati xavfsizligi va uzluksizligi ta'minlandi.

"O'zavtoyol" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi tashkilot va korxonalar tomonidan 2014 yilning birinchi yarim yilligida 564,4 mlrd. so'mlik (2013 yilning shu davriga nisbatan 127,7 %) yo'l qurilish, ta'mirlash, saqlash va tashqi pudrat ishlari bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ-1446-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbek milliy avtomagistrali" tarkibiga kiruvchi avtomobil yo'llari uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturiga asosan jami 61 ta (*shundan 45 tasi (401 km.) oldingi yillardan o'tuvchi, 16 tasi (133 km.) yangi boshlanadigan ob'ektlar*) ob'ektda 534 km. uzunlikdagi (422 km. asfaltobeton va 112 km. tsementobeton qoplamali) avtomobil yo'llarini foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.

2014 yil investitsiya dasturini amalga oshirish uchun hozirgi kungacha mahalliy pudratchi korxonalar tomonidan 534 km. yo'l qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 930,4 mlrd. so'mlik (shundan "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonalari tomonidan 233 km. yo'l qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 655,6 mlrd. so'mlik) shartnomalar tuzilgan bo'lib, qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

"O'zavtoyol" DAK korxonalari tomonidan bajariladigan shartnomaviy qiymatlar hududlar kesimida qaraladigan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida 141,8 mlrd. so'mlik (44,0 km. yo'l qurilish-ta'mirlash ishlari uchun), Andijon viloyatida 12 mlrd. (3,0 km. yo'lda), Buxoro viloyatida 114,7 mlrd. (40,0 km. yo'lda), Jizzax viloyatida 31,6 mlrd. (20, km. yo'lda), Qashqadaryo viloyatida 130,9 mlrd. (50,0 km. yo'lda), Samarqand viloyatida 42,2 mlrd. (20,0 km. yo'lda), Surxondaryo viloyatida 42,5 mlrd. (14,0 km. yo'lda), Toshkent viloyatida 74,8 mlrd. (21 km. yo'lda), Farg'ona viloyatida 37,1 mlrd. (21 km. yo'lda) so'mlik shartnomalar tuzilgan. Yo'llar kesimida qaralganda esa, eng katta qurilish-ta'mirlash ishlari M-39 "Almati-Bishkek-Toshkent-Termiz" (150 km.dan oshiq), A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynau" (120 km.dan oshiq), A-373 "Toshkent-O'sh" (115 km.dan oshiq), M-37 "Samarqand-Ashxobod-Turkmanboshi" (50 km.dan oshiq) xalqaro avtomobil yo'llarida amalga oshirilishini ko'rish mumkin.

Shundan hisobot davrida "O'zavtoyol" kompaniyasi tomonidan 152,0 km. uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilinib, bu borada rejadagi 176,3 mlrd. so'm o'rniga 185,3 mlrd. so'mlik (105,1%) qayta qurish ishlari bajarildi (2013 yilning 1-yarim yilligiga nisbatan 108,5 %).

Bular:

— **A-373 "Toshkent-O'sh"** avtomobil yo'llining 341 — 350-km. qismidagi 5 km. (Farg'ona viloyati) va 450-475-km. qimidagi 2 km. (Andijon viloyati);

— **M-39 "Olmaota-Bishkek-Toshkent-Termiz"** avtomobil yo'lining 928 — 939-km. qismidagi 5 km. (Samarqand viloyati) va 962 — 982-km. qismidagi 20 km. va 1017 — 1025-km. qismidagi 2,1 km. (Jizzax viloyati), 1240 — 1265-km. qismidagi 5,2 km., 1265 — 1297-km. qismidagi 4,2 km. va 1297 — 1315-km. qismidagi 4 km. (Qashqadaryo viloyati), 1315 — 1330-km. qismidagi 2 km. (Surxondaryo viloyati);

— **M-37 "Samarqand-Buxoro-Ashxobod-Turkmanboshi"** avtomobil yo'lining 9 — 11-km. qismidagi 1,7 km., 73 — 83-km. qismidagi 5 km. va 116 — 126-km. qismidagi 4,3 km. (Samarqand viloyati), 241 — 261-km. qismidagi 4,7 km., 311 — 321-km. qismidagi 10 km. va 336 — 346-km. qismidagi 10 km. (Buxoro viloyati);

— **A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov"** avtomobil yo'lining 140 — 150-km. qismidagi 6 km. (Qashqadaryo viloyati), 188 — 198-km. qismidagi 5,9 km. va 198 — 208-km. qismidagi 9 km. (Buxoro viloyati);

— **4R87 "G'uzor-Chim-Ko'kdala"** avtomobil yo'lining 18 — 38-km. qismidagi 19,5 km. (Qashqadaryo viloyati);

— **"Termiz xalqaro aeroporti — Xayroton ko'prigi" (Shimoliy yo'nalish)** avtomobil yo'lidagi 2,5 km. (Surxondaryo viloyati);

— **4R-143 "Farg'ona sh.-Quvasoy sh."** avtomobil yo'lining 0 — 5,5-km. qismidagi 5,5 km. (Farg'ona viloyati) va boshqa avtomobil yo'llaridir.

Yo'l ishlari bajarilishini korxonalar kesimida ko'radigan bo'lsak, hisobot davrida Romiton T YXPITFK rejadagi 14956,8 mln. so'm o'rniga 24409,7 mln. so'mlik, "Shimoliy-G'arbiy" XDAAYITFK rejadagi 10543,7 mln. so'm o'rniga 23739,9 mln. so'mlik, Qoraqalpog'iston KXSITFK rejadagi 5650,0 mln. so'm o'rniga 11196,6 mln. so'mlik ish bajarib, o'zining salmoqli hissasini qo'shdi va hokazo.

Shuningdek, kompaniya avtoyo'lchilari tomonidan Poytaxtimizning Xurshid va Beruniy ko'chalari oralig'idagi qismida qurilayotgan G-50 yangi aylanma yo'lining 5,1 kilometrdan iborat qismida ham qurilish ishlari olib borilmoqda.

Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida "O'zavtoyo'l" kompaniyasi korxonasi va tashkilotlari tomonidan 48,8 mlrd. so'mlik kapital ta'mirlash ishlari.

Respublikamizning umumiy foydalanishdagi xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi 42654 km. uzunlikdagi avtomobil yo'llarida 2014 yilning birinchi yarim yilligi davomida jami 286,1 mlrd. so'mlik saqlash va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Jumladan: avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash ishlarida 169,8 mlrd. so'mlik, avtomobil yo'llari holatini saqlash ishlari bo'yicha 91,2 mlrd. so'mlik, avtomobil yo'llari mintaqasini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha 4,9 mlrd. so'mlik, avtomobil yo'llarida avtotransport va yo'lovchilarning kuz-qish mavsumida xavfsiz harakatlanishini ta'minlash ishlari bo'yicha 20,2 mlrd. so'mlik ishlari bajarildi.

Mazkur mablag'lar hisobidan avtomobil yo'llarimizda harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha, jumladan, 7227 dona yetishmagan yo'l belgilari o'rnatildi; 11001 dona eskirgan yo'l belgilari almashtirildi; 16574 pm. uzunlikda 1-guruh to'siqlari o'rnatildi; 16259 dona yo'naltiruvchi va ko'rsatuvchi ustunchalar o'rnatildi; 4343 pm. uzunlikdagi ko'priklarda harakat xavfsizligi ta'minlandi; 4123 km. yo'l qatnov qismi belgilandi; 1676 joyda piyodalar o'tish joyi belgilandi; 2182 dona quvurlarda harakat xavfsizligi ta'minlandi; 6912 km. uzunlikda yo'l marzasi mustahkamlandi; 81 joyda avtomobil yo'lining temir yo'li bilan kesishgan qismida harakat xavfsizligi ta'minlandi; 1242 joyda yo'l tutashmalari obodonlashtirildi; 468 dona avtobus to'xtash bekatlari qurildi va ta'mirlandi; 52 km. uzunlikda piyodalar yo'lasi qurildi; yo'llarda qishki mavsumda yuzaga kelgan 842 ming m<sup>2</sup> hajmdagi chuqurchalar ta'mirlandi.

2014 yilning birinchi yarmida kompaniya korxonalariga jami 264 ta yangi texnikalar o'lingi. Shundan, 217 ta texnika Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan xarid qilingan bo'lsa, 47 ta texnika korxonalarining o'z mablag'lari, lizing va bank kreditlari hisobidan sotib olingan. Jumladan, Toshkent ko'priki xo'jaligini saqlashga ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-foydalanish korxonasi 22 ta, "O'z yo'lbutlash" korxonasi 15 ta, "Shimoliy-G'arbiy" xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini saqlashga ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-foydalanish korxonasi 10 ta texnikani o'z imkoniyatlarini ishga solgan holda xarid qilib, qurilish ishlariga jalb etdi. Yangi olingan texnikalar orasida 70 dan ortiq o'zi ag'dargich yuk avtomobillari, 30 dan ortiq avtogudronator va yana shuncha kombinatsiyalashtirilgan yo'l mashinalari, 30 ga yaqin avtobuslar, 20 ga yaqin egarli shatakchi yuk avtomobillari, 15 ta suv sepuvchi mashinalar, 10 dan ortiq

avtohavozalar, 10 tadan zanjirli ekskavator va zichlagichlar, shuningdek, yana ko'plab g'ildirakli ekskavatorlar, avtogreyderlar, yuklagichlar, yo'l frezalari, buldozerlar, ko'targichlar, beton tashuvchilar va boshqa maxsus transportlar bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrda PQ-2069-sonli qaroriga asosan Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan "O'zavtoyul" kompaniyasi korxonalarining sanoat va ishlab chiqarish bazalarini modernizatsiya qilish ishlari uchun 35,0 mlrd.so'm miqdorida mablag' ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ -1446-sonli qaroriga muvofiq 9 ta (Janubiy magistral yo'l korxonasi, Samarqand magistral yo'l korxonasi, Boysun tuman yo'l korxonasi, Namangan ko'priki xo'jaligi korxonasi, To'raqo'rg'on tuman yo'l xo'jaligi korxonasi, Qashqadaryo ko'priki xo'jaligi korxonasi, Qoraqalpoq ko'priki xo'jaligi korxonasi, Jizzax ko'priki xo'jaligi korxonasi, "Buxoroyo'lgranit" korxonasi) korxonada modernizatsiya ishlari bo'yicha Respublika yo'l jamg'armasi bilan shartnomalar imzolandi hamda birinchi yarim yillikda 12,8 mlrd.so'm miqdorida avans mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 28 fevralda 52-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan "O'zavtoyul" kompaniyasi tizimidagi 8 ta korxonaning sanoat va ishlab chiqarish bazalarini modernizatsiya qilish bo'yicha bosh pudratchi tashkilotlar tomonidan loyiha-smeta hujjatlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Respublika yo'l jamg'armasiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan. Qolgan 7 ta korxonada loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan kompaniyaga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2014 yilning birinchi yarim yilligida o'sish sur'atlari 103,5 % miqdorida belgilangan bo'lib, kompaniya tizimidagi sanoat va yordamchi ishlab chiqarish xo'jalik korxonalari tomonidan hisobot davrida taqqoslama narxlarda 95,3 mlrd.so'mlik, 2013 yilning shu davriga nisbatan esa taqqoslama narxlarda 103,6 % dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Jumladan, Kompaniya tizimidagi temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Qo'yliq ko'priklari temirbeton qurilmalar tajriba zavodi tomonidan joriy yilning birinchi yarim yilligida 68,2 ming tonna yig'ma temir-beton konstruksiyalari va jihozlari ishlab chiqarilib, buyurtmachilarga yetkazilib berildi. Shuningdek, asfaltbeton mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Toshkent viloyatida joylashgan yana bir yirik "Toshvilyo'lsanoat" sanoat korxonasi tomonidan hisobot davrida 111,9 ming tonna asfaltbeton mahsuloti ishlab chiqarildi va avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlari uchun yetkazilib berildi.

O'z navbatida, kompaniya tizimidagi sanoat va yordamchi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan joriy yilda avtomobil yo'llari va ulardagi sun'iy inshootlarni qurish, qayta qurish va ta'mirlash ishlari uchun zarur bo'ladigan yo'l qurilish materiallarini yetkazib berish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Kompaniya tomonidan 2014 yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan yangi ish o'rinlarini yaratish dasturi parametrlariga muvofiq 180 ta yangi ish o'rinlari ochilishi ko'zda tutilgan. Amalda esa yilning birinchi yarmidayoq kompaniya tizimidagi korxonalarda ishlovchilar soni yil boshiga nisbatan 713 taga o'sdi.

2013 yilda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida va uning tarkibidagi sun'iy inshootlarda tabiiy ofat tufayli yuzaga kelgan turli darajadagi buzulishlarni tiklash bo'yicha 103 ta ob'ektda 20,3 mlrd so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, ob'ektlar o'rnatilgan tartibda qayta foydalanishga topshirildi.

Tizim korxonalari tomonidan joriy yilning birinchi yarmida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga 107,0 mlrd.so'm miqdorida (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 % ga ortiq) to'lovlar amalga oshirildi.

Xususan, byudjetga – 68,0 mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 145,0 %), byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga – 39,0 mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 145,0 %) to'lovlar amalga oshirildi.